



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI”**
mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari

(2022-yil 26-oktabr)



Toshkent – 2022

O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 26.10.2022. – 349 b.

Mazkur to‘plamdan amaliy filologiya sohasiga doir tadqiqot natijalari, O‘zbekistonda til siyosati va menejmentiga oid masalalar, zamonaviy leksikografiya va milliy terminologiya muammolari, kompyuter va korpus lingvistikasining nazariy-amaliy masalalari tadqiqi, lingvistik ekspertiza manbalari, terminologik lug‘atlarni yaratishga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan amaliy filologiya sohasi mutaxassislari, tadqiqotchilar, magistrantlar va sohaga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.R.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

S.X.Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

I.X.Islomov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

NODIRA G‘AZALLARINING NASHRLARIGA DOIR MULOHAZALAR

Rajabova M.B. BuxDU professori, f.f.d.

Nematullayeva M.H. BuxDU

matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada Mohlaroyim – Nodiraning ayrim g‘azallari matnidagi mulohazali o‘rinlar tahlilga tortilgan. Buning uchun akademik Aziz Qayumov tomonidan 1958-yilda hamda Mahbuba Qodirova tomonidan 1979-yilda amalga oshirilgan nashrlardagi ayrim g‘azallar qiyosiy o‘rganilgan, ular o‘rtasida matniy tafovutlarga doir mulohazalar o‘rtaga tashlangan.

Kalit so‘zlar: Mohlaroyim, Aziz Qayumov, Mahbuba Qodirova, nashr, bayt, devon, qiyoslash

Annotation. The article analyzes the critical passages in the text of some ghazals of Mohlaroyim - Nadira. For this, some ghazals published by Academician Aziz Qayumov in 1958 and by Mahbuba Qodirova in 1979 were comparatively studied, and comments on textual differences between them were made.

Key words: Mohlaroyim, Aziz Qayumov, Mahbuba Qodirova, edition, verse, devan, comparison

Mohlaroyim – Nodiraning ijodiy merosini nashr qilish borasida anchagina ishlar qilingan. Aziz Qayumov tomonidan “Nodira She‘rlar” 1958-yildagi devoni, “Nodira-Komila” devonining I va II jildlari, Mahbuba Qodirova tomonidan “Nodira. Asarlar” devonining I va II jildlari, “Nodira. Devon” 1963-yildagi nashri, “Nodira she‘riyatidan” 1979-yilgi nashri kabi asarlar nashr qilingan. Albatta, yuqorida amalga oshirilgan nashrlar juda katta mehnat mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Biroq bu nashrlarda yutuqlar bilan birga juz‘iy tafovutlar borligi ham kuzatiladi. Biz quyida akademik Aziz Qayumov tomonidan 1958-yilda hamda Mahbuba Qodirova tomonidan 1979-yilda amalga oshirilgan nashrlar o‘rtasidagi matniy farqlarga doir mulohazalarni o‘rtaga tashlamoqchimiz. Ta‘kidlangan nashrlarda so‘z almashishi yoki so‘z yoki baytning tushishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi.

Jumladan, 1958-yilda Aziz Qayumov tomonidan tayyorlangan nashrda “Ey sarv sihi bo‘ylik‘im” deya boshlanuvchi g‘azalning to‘rtinchi bayti quyidagicha berilgan:

Ul zulfi diloviz muanbar girihidan,

Har kimni tushib boshig‘a bir o‘zgacha savdo. [Aziz Qayumov, 1958: 95]

Mahbuba Qodirova tomonidan tayyorlangan nashrda [Mahbuba Qodirova, 1979: 112-bet]. Mazkur baytdagi “*diloviz*” va “*girihidan*” so‘zlari “*dilovez*” va “*girehidan*” tarzida qo‘llangan. “*Dilovez*” so‘zining ma‘nosi “ko‘ngilni band qiluvchi, yoqimli” degan ma‘noni bildiradi.” *Diloviz*” so‘zi ham aynan shu ma‘noda qo‘llaniladi. Ammo lug‘atlarda ko‘proq *dilovez* shakli qo‘llaniladi. “*Girih*

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

va *gireh*” so‘zlarining ma’nosida ham deyarli farq yo‘q, “*tugun, chigal*” degan ma’noni anglatadi. Ammo *gireh* shakli juda kam uchraydi.

Mazkur g‘azalning maqta’si Aziz Qayumov nashrida:

Ko‘zgu kabi hayronlaringga arzu hayol et,
Diydoring uchun Nodiradur vola-yu shaydo

Ushbu baytning birinchi misrasidagi “*hayol*” so‘zi Mahbuba Qodirova tayyorlagan devonda “*jamol*” shaklida berilgan. “*Hayol, jamol*” so‘zlarining qay biri baytning umumiy mazmuniga muvofiq kelishini aniqlash uchun baytning nasriy bayoniga e’tibor qaratamiz.

Nasriy bayon: *Ko‘zgu kabi sening husningga hayron qolganlarga jamolingni ko‘rsat, Nodira ham diydoringga maftun-u shaydodur.*

Baytdagi “*vola*” [Alisher Navoiy, 1983: 656] so‘zining ma’nosi esa “maftun, hayratda qolgan” degan ma’noni bildiradi. Demak, baytning umumiy mazmuni *xayol* so‘zidan ko‘ra *jamol* so‘zining ma’nosini qabul qiladi.

Nodiraning “*Gulg‘a desam*” deya boshlanuvchi g‘azalining ham to‘rtinchi va yettinchi baytlarida so‘z almashinishi bilan bog‘liq o‘rinlar mavjud. G‘azalning to‘rtinchi bayti:

Turfa savole labidin so‘rdi yod,
Jon berayin bo‘lmasa shirin javob. [Aziz Qayumov. 1958:13]

Ushbu baytning birinchi misrasidagi “*yod*” so‘zi Mahbuba Qodirova nashrida “*yor*” tarzida qo‘llangan. Mazkur so‘zlarning qay biri mos kelishini bayt mazmunidan kelib chiqib aniqlashimiz mumkin.

Baytning nasriy bayoni: *Agar shirin javob bo‘lmasa, jon berayin deb, turfa savollarni yoridan so‘rab ko‘rdi.* Ushbu baytda oshiq ma’shuqasidan turfa savollarni so‘raydi, agar yorining labidin shirin javob chiqmasa jon berayin deydi. Anglashiladiki, bayt mazmuni “*yod*” so‘zini qabul qilmaydi.

Mazkur g‘azalning yettinchi bayti:

Moyili zulm etma ko‘zing tarkini,
Yo‘qsa qilur mardum uyini xarob.

Ushbu baytning birinchi misrasidagi “*tarkini*” so‘zi Mahbuba Qodirova nashrida esa “*turkini*” tarzida qo‘llangan. “*Tark*” [Alisher Navoiy, 1983: 624] so‘zi lug‘atda “*tashlash, voz kechish, bahridan o‘tish*” ma’nolarida qo‘llanilgan. “*Turk*” [Porso Shamsiyev, 1972: 784] so‘zi esa “*sho‘x, go‘zal*” ma’nolaridagi so‘z.

Baytning nasriy bayoni: “*Go‘zal va sho‘x ko‘zingni zulmga moyil qilma, yo‘qsa mardum uyini xarob etadi*”.

Mumtoz g‘azaliyotda ma’shuqa ko‘zi turli tashbehtar bilan tasvirlanishi bilan birga, uning oshiqqa zulm qilishi ham nazardan chetda qolmagan. Demak, yuqoridagi baytda ma’shuqa ko‘zini “*sho‘x va go‘zal*” sifati bilan vasf qilgan Nodira uning zulmdan yiroq bo‘lishini so‘raydi. Baytda “*mardum*” so‘zini ikki xil talqin etish mumkin. “*Mardum*” so‘zi bir ma’noda “erkak, inson” ma’nosida qo‘llanilsa, ikkinchisi “*ko‘zdagi qorachiq*” ma’nosini beradi.

“*Sayd etti meni ul ikki qullob*” deya boshlanuvchi g‘azalning to‘rtinchi bayti Aziz Qayumov nashrida:

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Tirdoba erur ko‘zimning yoshi,
Oshiqni halok etar bu girdob.

Birinchi misradagi “*tirdoba*” so‘zi Mahbuba Qodirova nashrida “*girdob*” shaklida uchraydi. “*Girdob*” [Botirbek Hasanov, 1993: 135]. so‘zi “*suvdagi chuqurlik, qayun*” degan ma‘noni anglatadi. “*Tirdoba*” so‘zini lug‘atlarda uchratmadik.

Baytning nasriy bayoni: “*Ko‘zimning yoshi girdobdir, bu girdob oshiqni halok etadi*” deydi. So‘z tarkibidagi bir harfning almashishi so‘zni “*ma‘nosiz*” shaklga olib kelgan.

Mohlaroyimning mashhur “*shitob aylab*” radifli g‘azali matnida ham bir nechta farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. G‘azalning to‘rtinchi bayti Aziz Qayumov tayyorlagan nashrda :

Muruvvat ayla, jono, sendin ayru tiyradir ayshim,

Yorit kulbamni bir tun orazingni oftob aylab, - tarzida berilgan. Baytning birinchi misrasidagi “*aysh*” so‘zi Mahbuba Qodirova nashrida “*shomim*” tarzida qo‘llanilgan. “*Aysh*” so‘zi “*turmush tarzi, rohat, farog‘at*” manolarida qo‘llanuvchi so‘z. “*Shom*” so‘zi esa “*kechqurun, qorong‘u*” ma‘nolarida qo‘llaniladi. Qay bir so‘z bayt mazmuniga mos kelishini bilish uchun nasriy bayondan foydalanamiz. “*Ey, yorim sendan ayrilib, hayotim qorong‘u bo‘ldi, muruvvat qil, bir tun yuzingni oftob aylab kulbamni yoritgin*”. Bu yerda “*ayshim*” so‘zini qo‘llash o‘rinli bo‘ladi. Chunki “*shom*” so‘zining ma‘nosini beruvchi so‘z keyingi misrada bor.

Mazkur g‘azalning beshinchi bayti Aziz Qayumov nashrida:

Darig‘o, ketti oxir gavhari maqsud ilgimdin,
Topib erdim seni mahbublardin intiho aylab.

tarzida keltirilgan. Biroq Mahbuba Qodirova nashrida bu bayt tushirib qoldirilgan.

“*Ey, xusho, shisha aro*” deb boshlanuvchi g‘azalda ham mulohazaga tortiluvchi o‘rinlar mavjud. G‘azalning birinchi bayti Aziz Qayumov nashrida shunday berilgan:

Ey, xusho shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim aning har kishi aytsa bo‘lur Xizrnamo.

Mazkur bayt Mahbuba Qodirova nashrida “*aytmoq*” so‘zi o‘rnida “*no‘sh etmoq*” so‘zi berilgan. “*No‘sh etmoq*” [Alisher Navoiy, 1983: 644] so‘zining ma‘nosi “*ichmoq*” dir. Baytning nasriy bayoni: “*Ey xush insonlar, shisha qadahda hakimlar obi hayoti bor, kim u haqida aytsa Xizr kabi bo‘ladi*”. “*Obi hayot*” bu may timsoli, ilohiy ishq ma‘nosida, Xizrnamo esa Xizriday abadiy yashashga ishoradir. Mazmundan aniqki, bu yerda “*aytmoq*” jumlasini emas balki, “*no‘sh etmoq*” jumlasini mos keladi.

Nodiraning “*Marhabo*” radifli g‘azali Aziz Qayumov nashrida o‘n bir baytdan iborat, ammo Mahbuba Qodirova nashrida to‘qqiz bayt. Quyidagi baytlar Mahbuba Qodirova nashrida tushirib qoldirilgan.

Sakkizinchi bayt:

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Ravshan aylarman charog‘i ohni,
Ko‘zlarimdur gavhar afshon, marhabo.

To‘qqizinchi bayt:

Bu kecha hijron shabistonidur,
Anjumi ashkim charog‘on, marhabo

Ammo g‘azal mazmuni vazni qofiyasi jihatidan bu ikkala bayt g‘azalga juda mosdir.

Shoiraning “*Jamola paydo*” radifli g‘azalida ham tushirib qoldirilgan baytlar mavjud. Aziz Qayumov nashridagi beshinchi bayt:

Karam dastgohi ki xon atosi mudom omoda mehmon yuziga,
Aning rezayi bazmbaxshoyishidan bo‘lur har gadog‘a navola paydo.

Mahbuba Qodirova tomonidan qilingan nashrda tushirib qoldirilgan, Vaholanki, g‘azalning ushbu bayti tushirib tahlil qilinsa, g‘azal ma‘no-mazmuniga putur yetishi tabiiy hol.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, mumtoz ijodkorlarning asarlari nashridagi birgina so‘zning tushib qolishi yoki almashishi ma‘noga salbiy ta‘sir qilishi bilan birga, muallifning asl maqsadidan o‘quvchini yiroqlashishiga sabab bo‘ladi. Albatta, Nodira devonlarining keyingi nashrlarida bunday nuqsonlarning oldini olish matnshunosligimiz oldidagi muhim muammolardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, I tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 656-bet.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 644-bet.
3. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, III tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 624-bet.
4. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, IV tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 636-bet.
5. Aziz Qayumov. Nodira. She‘rlar. – Toshkent: O‘z.SSR davlat badiiy nashriyoti, 1958. – 95-bet.
6. Mahbuba Qodirova. Nodira she‘riyatidan. – Toshkent: O‘zbekiston Markaziy Komiteti nashriyoti, 1979. – 112-bet.
7. Mahbuba Qodirova. Nodira- Komila. Devon. – Toshkent: Xalq merosi, 2001. – 308-309betlar.
8. Porso Shamsiyev. Navoiy asarlar lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972-y. – 784-bet.

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Soliyeva N. Lingvistik ekspertizada “da’vat” tushunchasi tahlili.....	240
Najmiddinova N. Haqorat tushunchasi va uning lingvistik ekspertizasi.....	243
Suvonov Z. Badiiy matn lingvistik ekspertizasining metodologik asoslari..	246
Umrzaqova G. Muammoli yozishmalarda tahdidga doir so‘zlarning lingvistik ekspertizasi.....	252
Nosirova Sh. Lingvistik ekspertizada shaxsni obro‘sizlantirish tushunchasi	257
Sultonova E. Turli ziddiyatli matnlarni lingvistik ekspertiza qilish asoslari	261

5. SHO‘BA. AMALIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Zaripov R. Amaliy filologiya yo‘nalishi talabalarining tanishuv amaliyotini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.....	263
Bakiyeva X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqi va tafakkurini o‘stirish — til ta’limining dolzarb muammosi sifatida.....	268
G‘ulomova X. Grammatik mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish.....	272
Jo‘raeva N. Disfemizm tushunchasi va uning pragmatik xususiyatlari.....	276
Xo‘jayev N. Abdulla Oripov she‘riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari.....	281
Khidirova G. Cultural differences of words ‘gratitude’ and ‘apology’ in english and their counterparts in uzbek.....	286
Juraev N. Teaching composition writing.....	289
Po‘latova S. O‘zbekiston davlat madhiyasida “g‘urur” konseptining ifodalanishi.....	293
Qudratova M. Asqar Mahkam she‘riyatida vatan mavzusi.....	296
Rajabova M., Nematullayeva M. Nodira g‘azallarining nashrlariga doir mulohazalar.....	300
Boltayeva N. Tabassum – noverbal aloqa vositasi.....	304
Barotova M. Muloqotda barmoq ishtirokidagi o‘zbekona paralingvistik vositalarning ahamiyati.....	308
Nurmurotov I. Dastlabki punktuatsion belgilarning shakllanishi.....	313
Abdumannatova N. “Hotamnoma” asarining lingvofolkloristik tahlili.....	317
Egamberdiyev F. Holat bildiruvchi sifatlarning o‘zbek tilida o‘rganilishi..	320
Allanazarova F. O‘zbek hikoyachiligida yangilik va an‘ana.....	325
Yo‘ldosheva D. Til birligida taqlid so‘zlar.....	329
Turopova H. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollari lingvistik tadqiqi masalalarining o‘rganilishi.....	332
Худайбердиева И. Сложности в различии падежей русского и узбекского языков.....	338
Ibrohimova M. Harakat nomi va infinitivning qiyosiy tahlili.....	344